



Structural and syntactic features of appositional construction elements in modern English

Dilbar TULAKOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25
November 2025

Keywords:

appositive construction,
structural-syntactic features,
English syntax,
intonational separation,
communicative unit.

ABSTRACT

This article analyzes the structural-syntactic features of appositive constructions in English. Appositive constructions are structures that are semantically dependent on the main sentence in speech, but appear as intonationally and structurally independent units. Their study is crucial for understanding the dynamics of sentence structure in modern English syntax. The analysis illuminates the structural types of appositive units and their syntactic functions based on examples extracted from the works of writers such as Bellow, Kingsley, Wells, and Golding.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp21-25>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hozirgi zamon ingliz tilida ilova konstruksiya elementlarining struktur-sintaktik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ilova konstruksiya,
struktur-sintaktik xususiyat,
ingliz tili sintaksisi,
intonatsion ajralish,
kommunikativ birlik.

Mazkur maqolada ingliz tilida ilova konstruksiyalarining struktur-sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilova konstruksiyalar nutqda semantik jihatdan asosiy gapga bog'liq bo'lgan, biroq intonatsion va struktur jihatdan mustaqil birliklar sifatida namoyon bo'ladigan tuzilmalardir. Ularning o'rganilishi zamonaviy ingliz sintaksisida gap tuzilishining dinamikasini anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlilda Bellow, Kingsley, Wells, Golding kabi yozuvchilarning asarlaridan olingan misollar asosida ilova birliklarining struktur turlari va ularning sintaktik funksiyalari yoritiladi.

¹ PhD student, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: Dilbar83tulakova@gmail.com

Структурно-синтаксические особенности элементов присоединительной конструкции в современном английском языке

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
присоединительная
конструкция,
структурно-
синтаксическая
особенность,
синтаксис английского
языка,
интонационное
обособление,
коммуникативная
единица.

В данной статье анализируются структурно-синтаксические особенности присоединительных конструкций в английском языке. Присоединительные конструкции представляют собой структуры, которые семантически связаны с основным предложением в речи, но выступают как интонационно и структурно самостоятельные единицы. Их изучение имеет важное значение для понимания динамики построения предложений в современном английском синтаксисе. В анализе на материале примеров из произведений таких писателей, как Беллоу, Кингсли, Уэллс и Голдинг, рассматриваются структурные типы присоединительных единиц и их синтаксические функции.

Hozirgi zamon ingliz tili sintaksisining muhim xususiyatlaridan biri – bu nutqning ifodaviylik darajasini oshiruvchi, mazmunni aniqlashtiruvchi yoki kengaytiruvchi vositalardan biri bo'lgan ilova konstruksiyalari hisoblanadi. Ilova konstruksiyalari nafaqat grammatik jihatdan, balki uslubiy va semantik nuqtai nazardan ham murakkab hodisa bo'lib, ular matnda aniqlovchi, tushuntiruvchi yoki emotsional ma'lumotni kiritish orqali gapning kommunikativ tuzilishini boyitadi.

Tilshunoslikda ilova hodisasi qadimdan o'rganilgan bo'lib, u turli til oilalarida o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Rus tilshunosligida bu masalaga birinchi bo'lib ilmiy yondashgan olimlar qatoriga A.M. Peshkovskiy [2], L.V. Shcherba [3], V.V. Vinogradov [1] kabi olimlar kiradi. Ularning asarlarida ilova konstruksiyalarining sintaktik tuzilishi, intonatsion chegaralanishi va semantik bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, V.V. Vinogradov rus tilidagi so'z turkumlari tizimida ilovalar va ularning funksional xususiyatlarini grammatik jihatdan izohlab bergan.

Shuningdek, Yevropa grammatikasi doirasida bu masalani Ch. Bally [4], M. Deutschbein [5] kabi olimlar o'z tadqiqotlarida yoritganlar. Ularning ishlari til tizimidagi emotsional va stilistik vositalarning, jumladan, ilovalar orqali ifodalanadigan ekspressivlikning nazariy asoslarini belgilab bergan.

Ingliz tili materiallari asosida esa ilova konstruksiyalarining grammatik, semantik va stilistik jihatlari G. Leech [6], R. Quirk, S. Greenbaum, M. Svartvik [7], shuningdek, A.J. Thomson va A.V. Martinet [8] tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan. Bu olimlar ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining turli kontekstlarda qo'llanishi, ularning kommunikativ vazifalari hamda formal tuzilish xususiyatlarini chuqur tahlil qilganlar.

Shunday qilib, ilova hodisasining nazariy asoslari rus va g'arb tilshunosligi doirasida shakllanib, keyinchalik zamonaviy sintaksis tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining struktur-sintaktik xususiyatlari, ularning semantik va kommunikativ vazifalari, shuningdek, badiiy nutqda qo'llanish o'ziga xosliklari tahlil qilinadi.

Ilova konstruksiyasi deb, sintaktik jihatdan mustaqil, ammo semantik jihatdan asosiy ifodaga bog'liq bo'lgan ikkilamchi komponent tushuniladi. U ko'pincha asosiy gapdagi ma'noni aniqlaydi, kengaytiradi yoki tushuntiradi.

Ilova konstruksiyalarini shakliy jihatdan vergul, tire, qavs yoki intonatsiya orqali ajratish mumkin. Bu belgilar ilovaning sintaktik mustaqilligini ko'rsatadi. Ingliz tilida vergul bilan ajratilgan ilovalar eng ko'p uchraydi:

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining eng muhim struktur belgilari quyidagilardan iborat:

1. Asosiy ifoda va unga bog'langan ilovali element. Ilova konstruksiyasi ikki asosiy komponentdan tashkil topadi: birinchisi – asosiy ifoda, ikkinchisi – unga semantik jihatdan bog'langan qo'shimcha ma'lumotni ifodalovchi ilovali birlikdir. Ushbu birliklar o'zaro sintaktik aloqada bo'lib, mazmun jihatidan yagona butunlikni hosil qiladi.

2. Ilovali elementning intonatsion va tinish belgisi bilan ajratilishi. Ilovalar yozma nutqda tinish belgilari (vergul, tire, qavs) orqali, og'zaki nutqda esa intonatsion pauza yordamida ajratiladi. Bu hodisa ularning struktur jihatdan mustaqilligini va alohida kommunikativ yukini namoyon etadi.

3. Sintaktik mustaqillikning qisman saqlanishi. Ilovali birliklar grammatik jihatdan asosiy gap tarkibida bo'lsa-da, ular muayyan darajada sintaktik mustaqillikka ega. Bu xususiyat ularni boshqa ikkinchi darajali gap bo'laklaridan farqlaydi va ilova konstruksiyalarining o'ziga xos struktur belgisidir.

4. Semantik jihatdan asosiy ifodaga tobe bo'lishi. Ilova konstruksiyalari mazmunan asosiy ifodani aniqlaydi, izohlaydi yoki to'ldiradi. Ularning semantik vazifasi – asosiy ifoda ma'nosini kengaytirish, aniqlik kiritish yoki qo'shimcha informatsiya berishdan iborat. Shu bois ilova konstruksiyalarining sintaktik mustaqilligi cheklangan bo'lib, ular doimo semantik jihatdan asosiy ifodaga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Masalan: *It was even scary, sometimes* (Bellow S. The adventure of Augie March. 114 P.). Bu yerda *sometimes* ilova sifatida asosiy fikrni emotsional kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Yoki: *I swore not to say a word – out of curiosity* (Kingsley Ch. The Water Babies. 139 P.). Bu konstruksiyada *out of curiosity* izohlovchi ilova sifatida asosiy harakat sababini bildiradi.

Shuningdek, badiiy matnlarda ilovalar gapning ritmik oqimini, emotsional ohangini ham boshqaradi. Quyidagi misolda bu aniq ko'rinadi: *Here the mazurka began, and we parted – goodbye* (Bellow S. The adventure of Augie March. -147 P.)

Bu ilova *goodbye* orqali muloqotning hissiy yakunini beradi.

Yoki: *I kissed for the last time, shook hands, and we parted – forever* (Wells H.G. The food of the Gods. -478 P.)

Bu yerda *forever* ilovasi vaqt nuqtai nazaridan emotsional yakunlovchi komponent bo'lib xizmat qiladi.

Ilova konstruksiyalari nutqning informativ sig'imini kengaytiradi. Ular gapga yangi fakt, tushuntirish, yoki baho kiritadi. Shuning uchun ham ularni "ifodaviy vosita" deb atash mumkin. Misol uchun:

You have murder for your credit and spousal stealing, attempted fornication, lies and shady deals, and plenty of harassment that doesn't stand up to close inspection. Admirable things, all (Bellow S. The adventure of Augie March. 78 p.).

Bu ilovada *admirable things, all* gapning umumiy bahosini beradi va ifodaning ekspressivligini oshiradi.

Struktur nuqtai nazardan, ilovalar ikki turga bo'linadi:

1. **Bog'lovchisiz ilova** – u tinish belgilar bilan ajratiladi va o'z mustaqilligini saqlaydi;

2. **Bog'lovchili ilova** – *as, namely, that is, in other words* kabi biriktiruvchi so'zlar orqali asosiy ifodaga ulanadi: *He spoke to the manager, that is, the man in charge of the office.*

Sintaktik jihatdan ilova konstruksiyalari ingliz tili uchun “yopiq strukturalar” sirasiga kiradi. Ular asosiy gap tarkibida ikkilamchi, lekin semantik jihatdan boy komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Semantik vazifasiga ko'ra, ilovalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Aniqlovchi ilova – *London, the capital of England, is very old.* (Dickens Ch. *A Child's History of England*, p.17)

Izohlovchi ilova – *John, my best friend, helped me a lot.* (Bellow S. *The Adventures of Augie March*, p. 203)

Emotsional ilova – *It was wonderful – really!* (Woolf V. *Mrs. Dalloway*, p. 95)

Baholovchi ilova – *A failure, if you ask me.* (Hemingway E. *The Sun Also Rises*, p. 142)

Har bir turdagi ilova konstruksiyasi nutq jarayonida ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi. Jumladan, aniqlovchi ilova identifikatsiyani, ya'ni predmet yoki shaxsning aynan kim yoki nima ekanligini aniq belgilashni ta'minlaydi. Izohlovchi ilova esa kontekstni kengaytiradi, asosiy fikrni izohlaydi yoki unga qo'shimcha semantik axborot beradi. Emotsional ilova nutqda subyektiv bahoni, so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu turdagi ilovalar, odatda, og'zaki nutq uslubiga xos bo'lib, so'zlovchining ruhiy holatini, hayrat, quvonch, norozilik yoki kinoya kabi his-tuyg'ularni aks ettiradi.

Zamonaviy ingliz tili matnlarida, xususan, badiiy, publitsistik, dramatik va hatto ilmiy uslublarda ham ilova konstruksiyalarining keng qo'llanayotgani kuzatiladi. Buning asosiy sababi – bu konstruksiyalarning semantik ixchamlik, uslubiy ta'sirchanlik va mantiqiy aniqlikni ta'minlash imkoniyatiga egaligidadir. Ayniqsa, badiiy matnlarda ilovalar obrazlilikni kuchaytirish, personajlarning nutqini jonlantirish va individual uslubni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Publitsistik matnlarda esa ular fikrni ta'sirli, ravon va ixcham shaklda yetkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida ilova konstruksiyalari nutqning muhim ifodaviy va struktur elementi sifatida til tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular yordamida so'zlovchi o'z fikrini aniqlashtiradi, baholaydi yoki mantiqiy jihatdan kengaytiradi. Struktur jihatdan ilovalar mustaqil sintaktik birlik sifatida ajratilgan bo'lsa-da, semantik jihatdan asosiy ifoda bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu xususiyat tufayli ular sintaktik butunlik doirasida o'z mustaqilligini qisman saqlab qolgan holda, mantiqiy-mazmuniy jihatdan bog'lovchi funksiyani bajaradi.

Ilovalar orqali ingliz tili nutqining ekspressivligi oshadi, gapning informativ sig'imi kengayadi, va so'zlovchining hissiy yoki baholovchi munosabati ifodalanadi. Bundan tashqari, ilova konstruksiyalari matnning kompozitsion yaxlitligini ta'minlash, fikrlar orasidagi semantik munosabatlarni soddalashtirish va axborotni ta'sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi.

Shu boisdan, ilova konstruksiyalarini tizimli o'rganish hozirgi ingliz tili sintaksisining nazariy asoslarini chuqur anglash, shuningdek, nutqning kommunikativ va stilistik imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon ingliz tilida ilova konstruksiyalari nafaqat grammatik birlik sifatida, balki nutqning mantiqiy, kommunikativ va uslubiy tuzilishini tashkil etuvchi muhim element sifatida namoyon bo'ladi. Ular til tizimida fikrni aniqlashtirish, izohlash, kengaytirish hamda baholash kabi vazifalarni bajarib, matnning semantik yaxlitligini ta'minlaydi.

Ilovalar yordamida nutq yanada tabiiy, ta'sirchan va ifodali tus oladi, shuningdek, so'zlovchining shaxsiy munosabati yoki hissiy holati aniqroq aks etadi. Shu boisdan, ilova konstruksiyalarining struktur-sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy ingliz tili sintaksisi doirasida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ilmiy, badiiy va publitsistik uslublardagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilova konstruksiyalari matnning stilistik boyligini oshiradi, muloqot samaradorligini kuchaytiradi hamda so'zlovchining kommunikativ maqsadini aniqlik bilan ifodalashga xizmat qiladi. Demak, ilova hodisasi ingliz tili sintaktik tizimining ajralmas, murakkab va funksional jihatdan boy komponentidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М., 1972.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1956.
3. Щерба Л.В. Очерки по русскому языкознанию. – Ленинград, 1940.
4. Bally Ch. General Linguistics and French Language. – Oxford, 1965.
5. Deutschbein M. System der neuenglischen Syntax. – Halle, 1928.
6. Leech G. English Grammar for Today. – London: Macmillan, 1975.
7. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.
8. Thomson A.J., Martinet A.V. A Practical English Grammar. – Oxford University Press, 1986.